

Farg'ona viloyati statistika boshqarmasi Asosiy kapitalga investitsiyalar


2025-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar
- II. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar
- III. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar
- IV. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish
- V. Asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar

So'nggi besh yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki, u deyarli 2,8 barobarga ko'paydi, ayniqsa joriy davrda o'tgan yilga nisbatan 1,9 trln so'mga ko'p investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi



So'nggi besh yil ichida o'sish sur'atlarini ko'radigan bo'lsak, ular o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lib, 2025-yil yanvar-mart oylarida eng yuqori o'sish sur'ati 134,7 % ni tashkil qildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(choraklik\)](#)

[Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'ati \(choraklik\)](#)

[Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

Iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirishga 2025-yil yanvar-mart oylarida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 6,4 trln so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi va bu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 134,7 % ni tashkil etdi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

	Hajmi, mlrd so'm	o'sish sur'ati % da	umumiy hajmga nisbatan, %da	
			2024-y	2025-y
Jami	6 426,3	134,7	100,0	100,0
markazlashgan investitsiyalar:	307,3	127,7	4,8	5,0
respublika budjeti	213,1	111,0	3,3	4,0
moliya vazirligi huzuridagi suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	12,5	48,3	0,2	0,5
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	81,7	3,6 m.	1,3	0,5
shu jumladan, mln.AQSh dollarida	6,3	3,6 m.	x	x
markazlashmagan investitsiyalar:	6 119,0	135,1	95,2	95,0
korxona mablag'lari	981,5	113,1	15,3	18,2
aholi mablag'lari	626,8	109,9	9,8	11,9
to'g'ridan-to'g'ri, boshqa va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	4 173,5	146,8	64,9	59,7
shu jumladan, mln.AQSh dollarida	322,4	148,5	x	x
shundan:				
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	2 414,3	125,9	37,6	40,2
shu jumladan, mln.AQSh dollarida	186,5	127,4	x	x
tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	337,2	136,1	5,2	5,2

2025-yil yanvar-mart oylarida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan hajm 307,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 127,7 % ni tashkil etdi. Ularning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi esa 4,8 % ga yetdi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Respublika budjeti hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[Tiklanish va taragqiyot jamg'armasi hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)


[Korxonaning o'z mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[Aholi mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

Yillar bo'yicha markazlashgan va markazlashmagan moliyalashtirish
manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi



Shahar, tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish
manbalari bo'yicha tarkibi

		shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan % da)						
		Respublika budjeti	Korxona va tashkilot	Aholi	Xorijiy investitsiya va kredit	Suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari
Viloyat bo'yicha jami:	6 426,3	3,3	15,3	9,8	66,2	0,2	-	5,2
Farg'ona sh	1 857,9	5,6	15,1	4,6	66,4	-	-	8,3
Qo'qon sh	692,9	4,4	9,2	3,6	77,0	-	-	5,8
Quvasoy sh	583,6	0,0	19,5	3,0	76,8	-	-	0,7
Marg'ilon sh	177,1	3,8	11,3	21,9	59,9	-	-	3,1
Oltiariq t	226,9	5,8	18,6	20,0	50,6	-	-	5
Qo'shtepa t	213,2	0,1	55,8	20,5	20,0	2,0	-	1,6
Bag'dod t	132,7	8,8	25,8	28,2	36,1	-	-	1,1
Buvayda t	84,5	10,4	29,5	28,5	29,0	-	-	2,6
Beshariq t	61,6	1,1	14,3	65,9	16,9	-	-	1,8
Quva t	148,7	1,9	26,8	39,3	27,8	0,4	-	3,8
Uchko'prik t	906,2	0,7	11,9	2,3	74,9	-	-	10,2
Rishton t	46,9	7,2	14,1	70,4	0,0	6,4	-	1,9
So'x t	39,7	2,3	57,9	16,1	16,4	7,3	-	-
Toshloq t	311,5	1,1	4,5	15,6	78,5	-	-	0,3

	Jami investitsiyalar, mlrd so'm	shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan % da)						
		Respublika budjeti	Korxona va tashkilot	Aholi	Xorijiy investitsiya va kredit	Suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari
O'zbekiston t	191,4	5,4	13,1	10,0	69,9	-	-	1,6
Farg'ona t	377,1	1,6	7,4	4,0	85,7	-	-	1,3
Dang'ara t	87,6	0,1	17,5	22,0	56,2	1,9	-	2,3
Furqat t	187,3	0,1	4,1	8,2	87,3	-	-	0,3
Yozyovon t	99,5	5,0	7,1	33,3	52,3	-	-	2,3

II. Farg'ona viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda. Amalga oshirilayotgan yirik investitsiya loyihalari natijasida ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 3,4 trln so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 53,4 % i o'zlashtirildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

	Hajmi, mlrd so'm	umumiy hajmga nisbatan, %da	
		2024- y	2025- y
Asosiy kapitalga investitsiyalar – jami	6 426,3	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	411,8	7,8	6,4
tog'-kon sanoati	4,6	0,1	0,1
ishlab chiqarish sanoati	3 430,0	51,8	53,4
elektr energiyasi, gaz, bug' va kondensiyalangan havo	156,0	0,6	2,4
suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish	14,2	0,6	0,2
Qurilish	738,9	3,0	11,5

ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash	137,3	5,6	2,1
tashish va saqlash	138,0	3,1	2,1
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,7	0,2	0,1
axborot va aloqa	48,3	1,4	0,8
moliya va sug'urta faoliyati	6,3	0,3	0,1
kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat	8,3	0,2	0,1
ta'lim	123,1	2,4	1,9
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	113,6	1,6	1,8
san'at, ko'ngil ochish va dam olish	7,4	0,9	0,1
turar-joy qurilishiga investitsiyalar	812,9	15,9	12,7
boshqa faoliyat turlari	267,9	4,5	4,2

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi \(yillik\)](#)

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi \(choraklik\)](#)

III. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar


2025-yil yanvar-mart oylarida jami 0,3 mlrd dollar xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilgan bo'lsa, ulardan yangi asosiy fondlarni yaratishga qaratilgan asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar 0,3 mlrd dollar yoki 4,3 trln so'mni tashkil etdi

Shahar, tumanlar kesimida xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd so'm

	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar
Viloyat bo'yicha jami:	2414,3	81,7	1370,7
Farg'ona sh	316,7	36,0	796,9
Qo'qon sh	533,3	-	-
Quvasoy sh	448,3	-	-
Marg'ilon sh	80,2	-	25,9
Oltiariq t	91,9	-	23,0
Qo'shtepa t	0,0	16,4	26,2
Bag'dod t	41,4	-	6,5
Buvayda t	7,1	-	17,4
Beshariq t	10,4	-	-
Quva t	39,2	-	2,3
Uchko'prik t	425,2	-	253,8
Rishton t	0,0	-	-

So'x t	2,6	2,4	1,5
Toshloq t	115,1	-	129,4
O'zbekiston t	24,6	-	-
Farg'ona t	153,7	-	1,8
Dang'ara t	28,5	-	-
Furqat t	55,7	15,1	86,0
Yozyovon t	40,3	11,7	-

Farg'ona viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy
kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi \(yillik\)](#)

[Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi \(choraklik\)](#)

IV. Farg'ona viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

2025-yil yanvar-mart oylarida jami 305,5 ming kv m turar-joylar ishga tushirilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 99,9 % ni tashkil etdi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda respublika bo'yicha jami 1,5 km suv tarmog'i ishga tushirildi, ularning 115,4 % i yoki 1,5 km qishloq joylar hissasiga to'g'ri keldi.

Shahar, tumanlar kesimida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

	Turar- joylar, ming kv m	Ulardan: qishloq joylarda ming kv m	Suv tarmog'i, km	Gaz tarmog'i, km
Viloyat bo'yicha jami:	305,5	205,2	1,5	0,0
Farg'ona sh	32,8	-	-	-
Qo'qon sh	15,2	-	-	-
Quvasoy sh	8,0	-	-	-
Marg'ilon sh	23,8	6,6	-	-
Oltiariq t	25,4	0	-	-
Qo'shtepa t	23,6	0	-	-
Bag'dod t	17,1	25,4	-	-
Buvayda t	10,2	21,9	-	-
Beshariq t	21,3	14,4	-	-
Quva t	30,5	9,4	-	-
Uchko'prik t	6,9	19,7	-	-
Rishton t	17,1	24,3	-	-
So'x t	1,7	6,6	-	-
Toshloq t	27,1	10,4	0,5	-
O'zbekiston t	7,1	1,7	-	-
Farg'ona t	5,6	26,0	-	-
Dang'ara t	6,5	7,1	1,0	-
Furqat t	6,8	2,9	-	-
Yozyovon t	18,8	5,4	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ishga tushirilgan uy-joylarning umumiy maydoni \(yillik\)](#)

[Ishga tushirilgan suv tarmoqlari uzunligi \(jami, yillik\)](#)

[Ishga tushirilgan gaz tarmoqlari uzunligi \(jami, yillik\)](#)

V. Asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarga barcha turdagi qurilish ishlariga qilingan xarajatlar; asbob-uskunalarini montaj qilish bo'yicha xarajatlar; mashina, asbob-uskunalar (montaj talab etiladigan va talab etilmaydigan), transport vositalari, jihoz va xo'jalik inventarini sotib olish; boshqa kapital ishlar va xarajatlar kiradi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar, ilgari boshqa tashkilotlarning asosiy fondlarida hisobga olingan asbob-uskunalar, binolar va inshootlar (yoki ularning ehtiyot qismlari)ni sotib olishga qilingan xarajatlarsiz keltirilgan.

Chet el investitsiyalari – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxona va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bu – korxonaga to'liq egalik qiluvchi yoki korxona aksionerlik kapitalining 10 % dan kam bo'lmagan qismini nazorat qiluvchi, ya'ni korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqigi ega bo'lgan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan kiritilgan investitsiyalar.

Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar yangi va import orqali xarid qilingan asosiy vositalarni o'z ichiga oladi. Bularga: ularning boshlang'ich qiymatini oshirishga olib keladigan yangi qurilish, kengaytirish, obyektlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish uchun ketgan xarajatlar, mashinalar, asbob-uskunalar, transport vositalari, yer holatini yaxshilash uchun xarajatlar, geologik qidiruv ishlariga, asosiy podani shakllantirishga va ko'p yillik o'simliklarni o'tkazishga ketgan xarajatlar kiradi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1865/Asosiy-kapitalga-investitsiyalar.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1872/Iqtisodiy-faoliyat-turlari-boyicha-asosiy-kapitalga-ozlashtirilgan-investitsiyalar.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1867/Asosiy-kapitalga-xorijiy-investitsiya-va-kreditlar.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

(73) 241-98-42
